

## Kelajak liderlari tanlovi g'olibi

2021-yilning 30-iyun kuni Toshkent shahrida joylashgan "Botanika" bog'ida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ishtirokida mamlatimizda yoshlar kuniga bag'ishlab, o'tkazilgan bayram tadbirida so'zlagan nutqlarida "Kelajak liderlari" iborasi yangrashi, yoshlarga yana bir bora ishonch va mas'uliyat yukladi, yuqori darajada motivatsiya berdi. "Iqtidorli yoshlar orasidagi yangi avlod zaxira kadrlari Kelajak liderlarini shakllantiramiz, bugun shuni mamnuniyat bilan ta'kidlashni istardimki, bunday yoshlarimizning ko'pchiligi jonkuyarlik bilan xizmat qilmoqdalar" deya ta'kidlab o'tganlarida yig'ilganlar tomonidan olqishlar bilan qo'llab-quvvatlanib, kutib olindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6260-son Farmoni bilan respublikamizning barcha viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahrida faol va tashabbuskor yoshlarni davlat fuqarolik xizmatiga qiziqtirish hamda yangi avlod kadrlar zaxirasini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi boshchiligida "Kelajak liderlari" klubini tashkil etish vazifasi berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan "Kelajak liderlari" klubiga a'zolik uchun respublika bo'ylab, tanlov uchun e'lon berildi. Dastlabki saralash bosqichi uchun respublikamiz bo'yicha jami 6246 nafar nomzod hujjatlarini topshirdi hamda shundan, 2796 nafar nomzodlar tanlovning ikkinchi bosqichiga o'ta oldilar. Nomzodlar barcha viloyatlarda tasdiqlangan nizom bo'yicha to'rt bosqichli tanlov saralash, test, esse yozish va suhbat bosqichlaridan o'tishi belgilandi.



Toshkent shahar "Kelajak liderlari" klubi a'zoligi uchun respublikamiz jami nomzodlarining qariyb 10 foizi, 652 nafari hujjat topshirishdi shundan, 350 nafar nomzod saralash bosqichdan o'tib, ikkinchi bosqichga tavsiya etildi. Test jarayoni to'g'ridan-to'g'ri onlayn yoritilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Toshkent shahar filiali tomonidan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida tashkil etildi. Maxsus dastur orqali o'tkazilgan Test jarayoni natijasiga 350 nafar ikkinchi bosqichga o'tgan nomzodlardan 179 nafari uchinchi bosqich esse yozish bosqichiga o'ta oldilar. Esse yozish bosqichi "Xalqni sevgan davlat xizmatchisi" mavzusida ochiqlik asosida to'g'ridan-to'g'ri onlayn yoritilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Toshkent shahar filiali tomonidan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida o'tkazildi. Uchinchi esse yozish bosqichidan 179 nafar nomzoddan 152 nafari oxirgi to'rtinchi bosqich, suhbat bosqichiga o'ta oldilar. Yakuniy bosqich O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Toshkent shahar filialida tasdiqlangan komissiya ishtirokida ochiqlik asosida to'g'ridan-to'g'ri onlayn yoritilgan holda, o'tkazildi. Uchinchi va to'rtinchi suhbat bosqichida ballar 100 ballik tizimda baholanib, 50 nafar eng yuqori bal to'plagan nomzodlar klub a'zoligiga qabul qilindi.



Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat Boshqaruv Akademiyasida Davlat fuqarolik xizmati uchun yangi avlod kadrlarini shakllantirish maqsadida Toshkent shahar "Kelajak liderlari" klubi faoliyatini tashkil etish va klubning rasmiy ochilishi tadbiri o'tkazildi. Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi direktori birinchi o'rinbosari Xasanov Otabek Abdurashidovich, O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Toshkent shahar filiali rahbari Inagamov Jovdatxon Sultanovich, Toshkent shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Raximova Durdona Shukurullayevna, 50 nafar klub a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari vakllari ishtirok etishdi. Davlatimiz rahbari hamda davlat tashkilotlari e'tiborida bo'lgan Toshkent shahar "Kelajak liderlari" klubiga Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti tayanch doktoranti Berdimurodov Akmaljon Azamat o'g'li ham tanlovlardan o'tib, yuqori natija bilan qabul qilindi. Ushbu

klubda doktorantlar uchun ham maxsus imkoniyatlar bo'lib, o'quv-uslubiy yo'nalishda olib boriladi.



Klubning maqsadi, vazifalari va funksiyalari belgilab olingan. Klubning asosiy maqsadi 20-35 yoshdagi faol, tashabbuskor va iqtidorli yoshlarni davlat fuqarolik xizmatiga qiziqtirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va qo'llab-quvvatlash, ular orasidan davlat fuqarolik xizmati uchun yangi avlod istiqbolli kadrlarini seleksiya qilish, davlat organlari va tashkilotlaridagi yosh mutaxassislarni liderlik (rahbarlik) ko'nikmalariga o'rgatish, yuqori malakali davlat fuqarolik xizmatchilari qatlami va yangi avlod kadrlari zaxirasini shakllantirishdan iborat. Klubning asosiy vazifalari Toshkent shahridagi yoshlar orasidan eng faol va tashabbuskorlar qatlamini aniqlash, ular orasidan istiqbolli va iqtidorlilarni saralab olish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish, yosh davlat fuqarolik xizmatchilarida yuksak kasbiy axloq-odob, korrupsiyaga qarshi turish madaniyati va unga toqatsiz munosabatni shakllantirish, klub a'ziligiga qabul qilingan yoshlarni davlat fuqarolik xizmatiga har tomonlama tayyorlash, o'qitish va malakasini oshirish, mahalliy hokimlik organlarining rahbarlik va boshqaruv lavozimlarining zaxirasini yuqori natijalarga erishgan klub a'zolaridan shakllantirish, yosh davlat fuqarolik xizmatchilari bilan bog'liq muammolarni o'rganish, ularni tahlil qilish hamda ushbu muammolarni bartaraf etish tahliliy va tashkiliy choralarni amalga oshirish, davlat fuqarolik xizmatida gender tenglikni ta'minlashga ko'maklashishdan iborat. Klubning funksiyalari yoshlar orasida barcha darajalardagi davlat fuqarolik xizmati nufuzini va jozibadorligini oshirish, istiqbolli mutaxassislar, shu jumladan, yoshlar va xotin-qizlar orasida davlat fuqarolik xizmatining ijobiy timsolini shakllantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, istiqbolli va iqtidorli shaxslarni yoshlar orasidan izlab topish va saralab olish, istiqbolli kadrlar seleksiyasini amalga oshirish, saralangan yoshlarni davlat fuqarolik xizmatiga tayyorlab borish, davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari bilan birgalikda yoshlar o'rtasida davlat fuqarolik xizmati va kadrlar ma'muriyatchiligi sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, shu jumladan davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat fuqarolik xizmatchilariga yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlarini singdirish bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish, klub a'ziligiga qabul qilingan yoshlarni vatanga sodiq inson etib tarbiyalash, ularda mustaqil fikrlash, boshqaruv va liderlik ko'nikmalarini shakllantirish hamda davlat boshqaruvi sohasida dunyoqarashini kengaytirish maqsadida o'quv-seminarlar, uchrashuvlar va master-klass hamda treninglar tashkil etish, yosh davlat fuqarolik xizmatchilari bilan bog'liq muammolarni o'rganish, ularni tahlil qilish hamda ushbu muammolarni bartaraf etish bilan bog'liq amaliy ishlarni tashkil etish, yosh davlat fuqarolik xizmatchilarining safini kengaytirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini oshirish; yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni manfaatlarini himoya qilish, intellektual salohiyatini to'liq namoyon etishi, jamiyatda munosib o'rin egallashlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishga ko'maklashishdan iboratdir. Yuqoridagi maqsad va vazifalarni o'qib chiqqan har bir shaxs bu klubning avvalgi klublardan farqini anglab yetishi aniq.



**TIQXMMI matbuot xizmati**